

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ИҚТИСОДИЁТИ

15. ФАО, МФСР, ЮНИСЕФ, ВПП и ВОЗ, (2021). Краткий обзор. Положение дел в области продовольственной безопасности и питания в мире – 2021. Преобразование продовольственных систем в интересах обеспечения продовольственной безопасности, улучшения питания и экономической доступности здоровых рационов питания для всех. Рим, ФАО. <https://doi.org/10.4060/cb5409ru>.
16. "BUYUK KELAJAK" XНHT. Ўзбекистон Республикасини 2035 йилгача ривожлантириш Стратегияси. https://uzbekistan2035.uz/uz/uzbekistan-2035_106-113 б.
17. Global Hunger Index (GHI), 2020. Global Hunger Index scores by 2020 GHI rank. www.globalhungerindex.org.
18. Ўзбекистон Республикасининг 2035 йилгача ривожланиш Стратегияси концепцияси. <https://uzbekistan2035.uz/uz/uzbekistan-2035>. -113 б.
19. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Ўзбекистоғн саноати. Статистик тўплам. Тошкент-2020.
20. Икромхужаев Г.Х., Ҳафизова З.Х. Фермер хўжаликларининг ер майдонларини оптималлаштириш долзарблиги ва тўғри ташкил этилиши // "Ахборотнома" илмий-амалий журнали, 2/2019. <http://ab.yaq.uz/node/19>.
21. Pindyck, Robert S., Daniel I. Rubinfeld. Microeconomics. Global Edition. -Copyright 2018, Pearson Education Limited 2018. P. 231.
22. Б.Т. Салимов, М.С.Юсупов, А.С.Юсупов. Ўзбекистон агросаноат маъжмуасининг жаҳон аграр ва озиқ-овқат бозорларига интеграциялашуви: илмий монография. -Т.: Иқтисодиёт, 2013. – 78 б.
22. <http://ru.wikipedia.org/wiki/Кооператив>.
23. Жураев Т.Т., Ҳамидов М.Э. Ўзбекистонда агрокластернинг ривожланиши ва уларнинг қишлоқ хўжалиги тараққиётida тутган ўрни // "Халқаро молия ва ҳисоб" илмий-электрон журнал. № 2, апрел, 2019 й. -6 б.
24. Götz M. The Industry 4.0 Induced Agility and New Skills in Clusters. Foresight and STI Governance, vol. 13, no 2, pp. 72–83. DOI: 10.17323/2500-2597.2019.2.72.83.
25. Щукина Л.В. Агрокластеры как инструмент обеспечения устойчивого инновационного развития сельского хозяйства региона // Вестник ГГТУ им. П.О. Сухого: научно - практический журнал. - 2014. - № 3. - С.97-104.
26. Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, 2021. Инфографика. www.agro.uz/uz/media_library/photo_gallery/.

O'ZBEKISTON SHAROITIDA INTENSIV USULDA BALIQ YETISHTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH YO'NALISHLARI

*Mamatqulov Nurbek O'razali o'g'li -
Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasi iqtisodiyoti ilmiy-tadqiqot
instituti stajyor tadqiqotchi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitida intensiv usulda baliq yetishtirishdagi muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari atroficha yoritilgan.

Tayanch so'zlar: texnologiya, hosildorlik, kredit, subsidy, iste'mol, tadbirkor, tibbiy norma, intensiv usul, ekstensiv usul, sun'iy suv havza, tabiiy suv havza, tuproq havzalar, filtratsiya.

ПРОБЛЕМЫ ИНТЕНСИВНОГО РЫБОВОДСТВА В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА И НАПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОДДЕРЖКИ ПО ИХ УСТРАНЕНИЮ

*Маматкулов Нурбек Уразали угли -
Научный сотрудник Научно-исследовательского института
экономики сельского хозяйства и пищевой промышленности*

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы интенсивного выращивания рыбы в условиях Узбекистана, подробно освещены пути их устранения и направления государственной поддержки.

Ключевые слова: технология, производительность, кредит, субсидия, потребитель, предприниматель, медицинская норма, интенсивный метод, экстенсивный метод, искусственный водоем, природный водоем, почвенные бассейны, фильтрация.

PROBLEMS OF INTENSIVE FISH FARMING IN UZBEKISTAN AND DIRECTIONS OF STATE SUPPORT FOR THEIR ELIMINATION

*Mamatkulov Nurbek Urazali ugli -
Researcher at the Research Institute of Agricultural
Economics and Food Industry*

Annotation: This article discusses the problems of intensive fish farming in Uzbekistan, details the ways to eliminate them and the directions of state support.

Key words: technology, productivity, credit, subsidy, consumer, entrepreneur, medical norm, intensive method, extensive method, artificial reservoir, natural reservoir, soil pools, filtration.

Kirish. O'zbekiston agrar sohasini barqaror tizimli rivojlanishiga erishilishi uchun uning barcha tarmoqlarida izchil islohotlar olib borilishi lozim va olib borilmoqda. Ana shunday serhosil sohalardan biri – bu baliqchilikdir. Baliq – inson uchun muhim ozuqa hisoblanadi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturini bajarilishida 2021-yil 20-martgacha "Ahollining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida go'sht, sut, tuxum va baliq mahsulotlari ishlab chiqarish hajm-larini oshirish" tadbiri rejalashtirilgan. Buni amalga oshirish uchun 6 trln. so'm (o'z mablag'lari va bank kreditlari hisobidan) mablag' ajratilgan. Chora-tadbirlar dasturidan kutilayotgan natija esa, 2021 yilda chovachilik, parrandachilik va baliqchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini ko'payti-rishga qaratilgan 1 500 ta yangi loyihalarni ishga tushirish nazarda tutiladi[1].

Baliq go'shti yuqori biologik qiymatga ega bo'lib, parhez xususiyati afzalliklariga ega bo'lganligi uchun insonlar hayotida yaxshi oziqa hisoblanadi. Shuni uchun baliq mahsulotlarini inson iste'mol qilishi uchun tibbiy normalar belgilangan. Bu tibbiy normalar O'zbekiston sharoitida har xil yoshidan, holatidan kelib chiqib 9 kg dan 25 kg gacha qilib belgilangan. O'rtacha hozirgi kunda tibbiy normasi O'zbekistonda 11 kg hisoblanadi. Ushbu tibbiy normani ta'minlash maqsadida Respublikamizda oxirgi yillarda baliqchilikni rivojlanish uchun bir qancha Qarorlar qabul qilindi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari Yaponiya, G'arbiy Evropa, Shimoliy Amerika, Avstraliya da aholi jon boshiga bir yilda iste'mol qilinadigan baliq go'shti o'rtacha 25-45 kg ni tashkil etadi. Butun jahon sog'iqliqi saqlash tashkiloti xulosasiga ko'ra, har bir inson bir yilda o'rtacha 12-16 kg baliq go'shti iste'mol qilishi lozim[4].

Umuman, dunyoda baliq asosiy oziq-ovqat mahsulot hisoblanadi, dunyoda o'rtacha kishi boshiga baliq iste'moli o'rtacha 22 kg dan oshgan. Bizda hozirgi kunga qadar bu ko'rsatkich 2-3 kg ni tashkil etmoqda. Bundan ko'rinish turibdiki, O'zbekistonda baliq mahsulotlari ishlab chiqarishni keskin oshirishga talab mavjud.

Shulardan biri, 2020-yil 14-apreldagi Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev tomonidan "Qishloq xo'jaligi tarmoqlarini yanada rivojlanish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish" bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida intensiv usulda baliq yetishtirishni rivojlanish past darajada ekanligi ta'kidlab o'tildi va joriy yilda baliq ishlab chiqarish hajmini 350 ming tonnaga yetkazish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. BAliqchilikni har tomonlama rivojlanishirish va uni iqtisodiyotdagi ahamiyati haqida yirik manbalardan biri Sankt-Peterburglik olimlar Komlatskiy V.I., Komlatskiy G.V., Velichko V.A. tomonidan yaratilgan "Ribovodstvo" darsligi hisoblanadi. Darslikda kichik (oila) va yirik baliqchilik xo'jaliklarida baliq mahsulotlarini intensiv va boshqa usullarda ishlab chiqarishning zarurligi hamda maqsadga muvofiqligi batafsil yoritilgan. Bundan tashqari, baliq yetishtirishning turli usul va texnologiyalari hamda zamnaviy sharoitlarda baliqchilik sanoatining iqtisodiy samaradorligini oshirishga imkon beruvchi texnologiyalar bayon yetilgan[6].

Mahalliy olimlarimiz B.A. Qaxramonov, N.R. Mullaboyevlar tomonidan yozilgan "Intensiv usulda baliq yetishtirish" qo'llanmasi baliqchilik bilan shug'ullanuvchi fermerlar, tadbirkorlar va xavaskor baliq yetishtiruvchilar uchun mo'ljallangan.

Qo'llanmada akvakulturada baliq yetishtirishning intensiv usullarini joriy etishga qaratilgan texnologiyalar va O'zbekistonda urchitilayotgan baliq turlarini yetishtirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek intensiv akvakulturada qo'llaniladigan texnologik jarayonlar, suv xavzalaridan ratsional foydalanish, omuxta yemlar retseptlari, ba'zi baliq-larning qisqacha biologik tasnifi keltirilgan[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi bo'lib didaktika uslubi bo'lib, tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, statistik guruhlash, monografik kuzatish, mantiqiy va abstrakt fikrlash usullaridan keng foydalilgan.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda mavjud baliqchilik xo'jaliklarida karpsimonlar oilasiga kürüvchi baliq turlaridan karp, oq amur, oq do'ngpeshona, chipor do'ngpeshona, shuningdek osyotr, kamalak ranggulbaliq va tropik baliq turlaridan afrika laqqasi, tilyapiya yetishtiriladi.

O'zbekiston xududi iqlimi va geografik o'rni jihatdan issiqsevar va sovuqsevar baliq turlarini yetishtirish uchun imkoniyat yetarli hisoblanadi. Bunda tog'li hudud suv omborlariagi baliqchilik xo'jaliklarida qafas usulida sovuq suvda yashovchi losossimonlar oilasiga mansub, baliq turlari kamalakrang gulbaliq va lasossimon baliq turlar urchitilib ko'paytiriladi[5].

Respublikamizda baliqchilikni rivojlanish uchun qanaqa imkoniyatlar bor degan savolga javob berishimiz kerak. Respublikamizda hozirgi kunda 38 ming hektarda sun'iy suv havzalari bor, umumiy hisobda 800 ming hektardan ortiq tabiiy suv havzalari bor. Lekin bu havzalardan bugungi kunda 600 ming hektar atrofidagi havzalar baliqchilik uchun ishlatalidi, ya'ni imkoniyatdan 75 foizgina foydalana olayapmiz.

Bu havzalar asosan, ijara ga berish hisobiga baliqchilik xo'jaliklari tomonidan foydalanilib kelin-

ҚИШЛОҚ ХҮЖАЛИГИ ИҚТИСОДИЁТИ

moqda. Mavjud 600 ming gektardan oshiq maydonni 305 ming gektari ijaraga olingan, qolgan tabbiy suv havzalaridan iborat maydonlar ijaraga olinmasdan bo'sh turibdi.

Amalda har bir suv havzasi uchun faqat unga to'g'ri keladigan intensivlash usullarini qo'llash zarur. Usullarni tanlashda ko'lning asosan metamorfik ko'rsatkichlari inobatga olinadi va o'z navbatida boshqariladigan baliq xo'jaligini yuritish,

ya'ni suv havzasi qancha katta bo'lsa inson tomonidan nazorat qilinadigan sharoitlarda baliq yetishirish va baliqchilik jaryoni tugaganidan so'ng havzadan maksimal hosil olish imkoniyatlari shuncha past bo'ladi.

Bugun O'zbekiston sharoitida baliqchilik rivojlanishini umumiy tafsifaydigan bo'lsak, uni xarakteristikasi quyida keltirilgan (1-jalval).

1-jalval

O'zbekiston baliq resurslarining umumiyligi xarakteristikasi[4]

Nº	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Raqamli ko'rsatkichlar
1.	Baliq hovuzlarining umumiyligi maydoni	ming ga	24
2.	Hovuzlarni to'ldirish uchun zarur suv hajmi	mln.kub.m.	370
3.	Hovuzlar tubiga singadigan suv hajmi	mln.kub.m.	33
4.	Filtrasiya va bug'lanishga ketadigan suv hajmi	mln.kub.m.	203
5.	Jami: hovuzlar suv iste'moli (yillik)	mln.kub.m.	605
6.	Ko'l va suv omborlari maydoni (baliqchilik)	ming ga	540
7.	Amaldagi hosildorlik (2019):		
	-baliq ovlash	kg/ga	30
	- sun'iy havzalar	kg/ga	28 800


Baliqchilik bugungi kunda ekstensiv rivojlaniib kelmoqda. Asosan, 2019-yilda 12 ming gektar sun'iy suv havza mavjud bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib bu ko'rsatkich 38 ming gektarni tashkil etmoqda, ya'ni 26 ming gektar yer maydonlari baliqchilikni rivojlantirish uchun ajratilgan.

Baliqchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar har xil ko'rinishdagi yer maydonlarini olib, chuqur kovlab, baliq yetishtirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib kelmoqda. Bu asosan, baliqlikni rivojlantirishdagi ekstensiv usul ekanligini ko'rishi-miz mumkin.

Bugungi kunda O'zbekistanda intensiv baliqchilikni rivojlantirishda bilimlarni yetarli darajada emasligi, nazariya rivojlanmaganligi va shu soha

bo'yicha kadrlar tayyorlashga yetarlicha e'tibor qaratilmasligi kabi omillar pand bermoqda va muamoligicha qolmoqda.

Shularni hisobga olib nazariy jihatdan baliq ishlab chiqarishda mavjud texnologiyani rivojlantirish imkoniyati juda qiyin, sezilarli darajada yuqori hosildorlikka asoslangan yangi texnologiyalarni rivojlantirish nazariyasini ilgari surish vaqtin kelganligini hayotning o'zi tasdiqlab turibdi. Bugun respublikamiz hududlari bo'yicha baliq iste'molini o'rganib chiqish lozim. Oddiy xalq ham yilda bir marotoba bo'lsa ham baliq iste'mol qilyaptimi, yo'qmi, bu savollar jumboqligicha qolib ketmasligi kerak deb o'ylaymiz.



1-rasm. O'zbekistonda baliq ishlab chiqarish[11]

ҚИШЛОҚ ХҮЖАЛИГИ ИҚТИСОДИЁТИ

Zero, mamalakatimiz Prezidenti SH.M. Mirziyoyev o'z so'zlarida: "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda yo'lga qo'ymas ekanmiz, sohada rivojlanish bo'lmaydi" deb ta'kidlab o'tgan edi.

Bundan tashqari hukumat tomonidan baliqchilikni rivojdlantirish bo'yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda, jumladan[2]:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan baliqchilik sohasini rivojlanirish uchun qabul qilingan oxirgi qarorlarda, jumladan, 2020-yil 29-yanvardagi PQ-4576-son qarorida tuproq havzalarida bosqichma-bosqich intensiv usulda baliq yetishtirishni tizimli yo'lga qo'yish belgilab berildi;

- mazkur qarorlarga asosan mahalliy hokimiyatlarga faqat intensiv usulda baliq yetishtirish loyihibariga yer ajratish tavsiya qilingan, bu bo'yicha Qarorda shunga alohida e'tibor qaratilganki yer faqat baliq intensiv usulda yetishtirilsagina ajratiladi deb belgilab qo'yilgan;

- bundan tashqari Qarorda intensiv usulda baliq yetishtirish uchun qator imtiyozlar ham berilgan. Imtiyozlardan:

birinchisi, baliqchilik uchun jihozlarni, jumladan, omuxta yemni ham respublika tashqarisidan olib kirishda boj to'lovleri bo'yicha imtiyozlar berildi. Omuxta yem masalasini hal qilmasdan turib, intensiv usulda baliq yetishtirish haqida gapirmsal ham bo'ladi.

ikkinchisi, ajratilgan kreditlar bo'yicha imtiyozlar berildi, jumladan, imtiyozli kreditni o'zi 16 % bo'lib turgan bir paytda, faqatgina intensiv usulda baliq yetishtirish uchun bu 12 % ga tushurilganligi juda katta imtiyoz deb bilishimiz kerak.

uchinchisi, intensiv usulda baliq yetishtirish va zottor ona baliqlar to'dasini olib kirishda davlat tomonidan subsidiyalar ajratish belgilandi. Bunda 2020-2022 yillarda "O'zbekbaliqsanoat" uyushmasiga a'zo bo'lgan intensiv usulda baliq yetishtiruvchi xo'jaliklarga davlat tomonidan quyidagi tartibda subsidiya ajratilishi belgilandi:

- intensiv usulda yetishtirilgan 1 tonna baliq mahsulot uchun 1 million so'm miqdorida subsidiya ajratiladi;

- O'zbekiston Respublikasi hududida import qilingan 1 dona nasldor ona baliqning 3,5 million so'mgacha bo'lgan xarajatlarining 50 foizi miqdorida davlat tomonidan subsidiya ajratiladi. Ma'lumki, o'tgan yili mammalakatimizga Vengriya davlatidan nasldor ona baliqlari import qilindi. Agarda 5 million so'mga nasldor ona baliqni olib kirsak ham shuni 3,5 million so'mgacha bo'lgan qismidan xarajatlarining 50 foizi miqdorida subsidiya beriladi. Bu esa, tadbirkor uchun juda katta davlat tomonidan yordam hisoblanadi.

Bu imtiyozlarni joriy qilish uchun Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-maydagi 280-sonli qarori qabul qilingan[3].

Mazkur qarorga muvofiq intensiv usulda baliq yetishtirish bo'yicha quyidagi norma va texnologiyalar belgilab berildi:

- 2020-2022 yillarda «O'zbekbaliqsanoat» uyushmasiga a'zo bo'lgan baliqchilik xo'jaliklari tomonidan intensiv usulda yetishtirilgan baliq hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilingan nasldor ona baliqlar uchun davlat tomonidan subsidiyalar ajratish tartibi to'g'risida NIZOM tasdiqlandi;

- intensiv usulda baliq yetishtirish texnologiyasi:

a) intensiv sun'iy suv havza texnologiyasi-sun'iy suv havza. Bunda maydonining o'lchami 2 gektardan kam bo'lmasligi, o'rtacha chuqurligi 2 metr dan kam bo'lmasligi, 1 gektarida 2-4 dona suv tarkibini kislorod bilan to'ldiruvchi (aerator) moslama o'rnatilgan bo'lishi, gektaridan 8 tonnadan kam bo'lмаган yuqori tig'izlikda baliq yetishtirish texnologiyasi hisoblanadi.

b) intensiv kichik suv havza (basseyn) texnologiyasi, ya'ni 1 m³ hajmdagi suvda 10 kg. (karb baliqlari uchun 5 kg.)dan kam bo'lмаган yuqori tig'izlikda baliq yetishtirish texnologiyasi hisoblanadi. Bunda oqar suv havzali qurilmali texnologiyasidir.

v) intensiv yopiq suv aylanma tizimi texnologiyasi, ya'ni ya'ni 1 m³ hajmdagi suvda 20 kg. dan kam bo'lмаган intensiv usulda baliq yetishtirish texnologiyasi hisoblanadi. Bunda yopiq bino yoki onshootlarda o'rnatilgan suv havzasidagi suvni maxsus uskunalar (mexanik, biologik, nasos va oksigenerator) yordamida tozalash va takror foydalanish texnologiyasidir.

g) qafas (sadok) moslamalarida, ya'ni 1 m³ hajmdagi suvda 10 kg. dan kam bo'lмаган intensiv usulda baliq yetishtirish texnologiyasi hisoblanadi. Bunda ochiq suv havzalarida turli o'lchamdagagi qafas moslamalari o'rnatiladi, suv ostki qismi to'r bilan o'ralgan va ushbu to'ming suv ustki qismi maxsus moslamaga (temir, plastik) mahkamlangan bo'ladi.

- subsidiya berish shartlari belgilab berildi.

Xulosa va takliflar. Respublikamizda baliqning barcha turlarini turli usullarda, xususan, intensiv asosda yetishtirishni ilmiy asosda o'rganish, yurtimiz sharoitlarida yetishtirish ko'laminani yanada kengaytirish yangi modernizasiyalashtirilgan bosqichga ko'tarilmoqda. Chunki, respublikamizda tadbirkorlikni rivojlanirish xususan, baliqchilkini taraqqiy ettirishga astoydil kirishilgan. Shubhasiz, yaqin kelajakda baliqchilik tarmog'iga innovation yangiliklar, innovation loyihalar joriy etiladi, baliqchilar nafaqat ichki bozorni, balki tashqi bozorni ham ta'minlashni nazarda tuta boshlaydilar. Albatta, buning uchun ilmiy izlanishlarni davom ettirish, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishimiz zarur bo'ladi.

Lekin yana shuni ham aytib o'tish lozimki, baliqchilikni rivojlantirish uchun davlat tomonidan katta e'tibor qaratilishidan, yerlar ajratilishidan, imtiyozlar berilishidan, uskuna va jihozlar olinishidan, nallarini yaxshilanishidan qat'iy nazar bugun bozorda baliq narxi arzon emas.

O'zbekistonda hozirgi payt foydalanib kelinayotgan hovuzlarda baliq o'stirish tizimi sharoitni boshqarishning uncha yuqori bo'lмаган darajasi bilan xarakterlanadi (bir qator rivojlangan mamlakatlar tizimi bilan taqqoslanganda). Eng yaxshi baliqchilik xo'jaliklarida baliqchi quyidagi ishlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega:

- tubi yaxshi tekislangan maydoni birmuncha katta bo'lgan hovuzlarni to'ldirishni boshqarish;
- hovuzlarga o'stiriladigan, suniy usulda olin-gan baliq turlarini o'tkazish (garchi bunday baliqlar

ro'yxati juda kam bo'lsada: oq do'ngpeshona, karp, ba'zan oq amur va chipor do'ngpeshona);

- xashaki baliq va boshqa organizmlarni yo'qotish elementlaridan foydalinish;

- tabiiy ozuqa bazasining rivojlanishini (ko'pincha plankton) rag'batlantirish;

- hovuzlar "gullab" ketishining ma'lum dara-jada oldini olish;

- baliqlarni qo'shimcha oziqlantirish;

- hovuzlar melioratsiyasi vegetatsiya davri oxirida baliqlarni to'liq tutib olish uchun hovuzlarni quritish.

Biz ilmiy izlanishlarimizda shu tomonlariga e'tibor qaratishimiz zarur bo'ladi. Kelajakda bozorlarimizni milliy baliq va baliq mahsulotlari bilan to'yintirish va uni narxini pasaytirish bo'yicha prognozlashtirish masalalarini qarashimiz lozim bo'ladi.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-soni Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan ko'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4576-soni qarori, <https://lex.uz/docs/4717189>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 12 maydag'i "Chorvachilik tarmog'iga davlat tomonidan subsidiya ajratishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 280-soni Qarori, <https://lex.uz/docs/4810009>
4. Qaxramonov B.A, Mullaboyev N.R. Intensiv usulda baliq yetishtirish. -T.: 2021, 96 bet
5. Niyo佐ov I.N. Baliqlarni oziqlantirish, Toshkent. 2011 yil.
6. Комлацкий В. И., Комлацкий Г. В., Величко В. А. "Рыбоводство", Учебник, Санкт-Петербург, 2020, 200 с.
7. Привезенцев Ю. А., Власов В. А. "Рыбоводство", Учебник для вузов, Россия, Издательство «Мир», 2004, 234 с.
8. Shepherd C. J., Niall R. Bromage. "Intensive Fish Farming", Wiley-Blackwell. 2017, 420 pages.
9. Камилов Б.Г., Курбанов А.Р., Халлаев И.И. "ВЫРАЩИВАНИЕ РЫБ В САДКАХ В УЗБЕКИСТАНЕ". Учебное пособие, Ташкент -2017 год, 32 с.
10. Каримов Б.К., Камилов Б.Г., Мароти Упаре, Рэймон Ван Анрои, Педро Буэно и д.р. Аквакультура и рыболовство в Узбекистане: современное состояние и концепция развития. Ташкент, ФАО, 2018, 146 с.
11. Stat.uz- O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi rasmiy sayti

ОРГАНИК ҚИШЛОҚ ХҮЖАЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОБЪЕКТИВ ЗАРУРИЯТИ ВА ТАМОЙИЛЛАРИ

**Ашурметова Нигора Азатбековна –
иқтисод фанлари номзоди, доцент,
Ташкент давлат аграр университети**

**Ҳамдамова Гавхарой Тўйчибой қизи –
Қишлоқ хўжалик ва озиқ –овқат соҳаси иқтисодиёти
илимий-тадқиқот институти докторанти**

Аннотация. Бугунги қунда органик ишлаб чиқариш анъанавий қишлоқ хўжалигига самарали алтернатив ҳисобланиб, унинг ривожланиши нафақат инсон саломатлиги учун фойдали юқори сифатли озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқаришга имкон беради, балки атроф-муҳитни муҳофаза қилишига, мамлакат худудларининг экологик, ижтимоий ва иқтисодий ривожланишининг барқарорлигини оширишга ёрдам беради. Мақолада органик қишлоқ хўжалигининг баъзи назарий жиҳатлари ва дунёдаги ривожланиши тенденциялари ёритилган.

Асосий тушунчалар: органик ишлаб чиқариш, органик қишлоқ хўжалиги, назорат, стандартлаштириш, тамғалаш, сертификатлаш, экология.